O'zlashtirish (o'qitish) natijalari	<p>Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib borish; yozma va og'zaki beriladigan topshiriqlarni bajara olish; fortepianoda intervallar, akkordlar, septakkordlar va ularning aylanmalari, sekvenstiyalarni aniqlab chala olishi; mustaqil topshiriq jarayonida ijodiy qobiliyatni rivojlantirish</p>
Bilim	<p>Solfedjio fani, uning maqsad va vazifalari;</p> <p>Tonalliklar, major ladi tonalliklari, ritm va metr, pog'analar nomlari, tetraxordlar, Fa major tonaligi, takt oldi, pauzalar, sinkopa, Sol major tonaligi, murakab o'lchovlar, o'n oltitalik nota, repriza, olti xissali o'lchov, Re major tonaligi, Si bemol major tonalliklari:</p> <p>Minor tonalliklari, Mi minor tonaligi, Re minor tonaligi, Si minor tonaligi, triollar, aralash metr va o'lchovlar, o'zgaruvchan o'lchovlar: Intervallar, oddiy intervallar, minor tonalligida intervallar, diatonik intervallar, orttirilgan va kamaytirilgan (xromatik) intervallar, tonalliklarda orttirilgan kvarta, tonalliklarda kamaytirilgan kvintalar; uchtovushlik, uchtovushliklar va ularning aylanmalari, major va minor tonalliklarini T-S-D aylanmalari, ikki ovoqlik mashqlar;</p> <p>O'quvchilarda tinglash qobiliyatini aniq rivojlantirish.</p> <p>Musiqa ifoda vositalarini tinglab aniqlash, notalarni mustaqil o'qish malakalarini shakllantirish, tovushlarni sof aytish, metroritmni aniq his etish;</p>

	<ul style="list-style-type: none"> - tinglash qobiliyatini o'zlashtirish (musiqa asarining usul va xarakterini cholg'uda ijro etmasdan turib aniqlash. Xor partiturasida garmoniyasini, lad va tempdagi o'zgarishlarini, musiqiy obraz va avj nuqtasini aniqlash; - to'g'ri nafas olish va chiqarish, tovush hosil qilish; - sof va ifodali kuylash malakalarini shakllantirish; - Ikki va ko'p ovozli mashqlarni solfedjio usulida kuylashda ansambl hosil qilish; - asar ladi, tonalligi va metroritmik tuzilishi haqida ma'lumotga ega bo'lish; - o'zi va boshqalar ijrosidagi xatoliklarni farqlay olish, ritmik noaniqliklarni ajrata olish, ularning sabablarini bilish; - ladga asosanib tugallanmagan diktant va kuyni tugatish; - ikkinchi ovozni yo'lga qo'yish; - O'quvchilarda ijodiy faollikni rivojlantirish; - kichik musiqa tuzilishini tahlil qilish; - garmoniya qonun-qoidalar haqida o'quvchilarga ma'lumot berish; - garmoniya haqida va garmonik qonun-qoidalar haqida tushuncha berish; -garmonik tuyg'u. Tabiiy garmoniyalash uchun musiqiy didni tarbiyalash; -o'quvchilarda ichki tinglashni tarbiyalash; - kuyni garmoniyalash amaliy malakalarini yuzaga keltirish; - tanish kuyga akkomponement tanlash malakalarini o'zlashtirish; -fortepianoda mashqlar: -garmonik tahlil qilish; - kadenstiyani aniqlash, basni rejalashtirish; - basni garmoniyalash bilan sakrashni tahlil qilish; -aylanmalarni garmoniyalashni aniqlash
Ko'nikma	<ul style="list-style-type: none"> - tonalliklar, major ladi tonalliklari,ritm va metr, pog'analar nomlari, tetraxordlar, Fa major tonaligi, takt oldi, pauzalar,sinkopa,Sol major tonalligi, murakab o'lchovlar, o'n oltitalik nota, repriza,olti hissali o'lchov, Re major tonalligi, Si bemol major tonalıklarini cholg'u asboblarida ijro etish va solfedjio qilib kuylash; - minor tonalliklari,Mi minor tonalligi,Re minor tonalligi, Si minor tonalligi, triollar, aralash metr va o'lchovlar, o'zgaruvchan o'lchovlarni cholg'u asboblarida ijro etish va solfedjio qilib kuylash; Intervallar, oddiy intervallar, minor tonalligida intervallar, diatonik intervallar, orttirilgan va kamaytirilgan (xromatik) intervallar, tonalliklarda orttirilgan kvarta, tonalliklarda kamaytirilgan kvintalarni cholg'u asboblarida ijro etish va solfedjio qilib kuylash; uchtovushlik,uchtovushliklar va ularning aylanmalari, major va minor tonalliklarini T-S-D aylanmalari, ikki ovozlik mashqlarni cholg'u asboblarida ijro etish va solfedjio qilib kuylash; - major va minor tonalliklari, Lya major tonalligi, Mi bemol major tonalligi, Mi major tonalligi, Lya bemol major tonalligi, Fa-diez minor tonalligi, Do minor tonalligi, Do diez minor tonalligi, Fa minor tonalligi, major va minor tonalliklarda intervallar, major va minor diatonik intervalar, major va minor tonalliklarda orttirilgan kvarta, major va minor tonalliklarda orttirilgan kvarta , tonalliklarda kamaytirilgan kvinta, va kamaytirilgan (xromatik) intervallar,

	<p>orttirilgan.va kamaytirilgan (xromatik) intervallar, major va minor tonalliklarda turg'un, noturg'un tovushlar, Major va minor tonalliklarini T-S-D aylanmalarini cholg'u asboblarda ijro etish va solfedjio qilib kuylash;</p> <p>-xatolarni taxlil qila olish;</p> <p>-fortepianoda mashqlarni ijro etish;</p> <p>-garmonik taxlil qilish;</p> <p>-kuy va basda misollar yechish;</p> <p>-o'tish shaklida tuzilmani tuzish;</p> <p>-ovozlarni tuzishni davom ettirish;</p> <p>-ikki variantda mashqlar echish;</p> <p>-bitta kuyda bir nechta variantlarni garmoniyalash;</p> <p>-oddiy pesalarni tuzish;</p> <p>-tovushda va tonallikda akkorrdlarni tuzilishi;</p> <p>-garmoniyalar, kadenstiyalar;</p> <p>- quyidagi qisqa parchalarni garmoniyalash yoki kuylarni taxminiy taxlil qilish;</p> <p>-zich joylashgan tonallik sekvenstiyalarni chalish;</p> <p>-tabiiy, garmonikturdagi major va minor gammalarni garmoniyalash;</p> <p>-transportirovka qilishda boshqa tonallikka o'tkazish;</p> <p>-shaklni taxlil qilish;</p> <p>-garmonik aylanmalar taxlil qilish va mustaqil amalda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</p>
O'quv rejaga muvofiq o'zaro bog'liq bo'lgan fanning nomi	Maxsus fanlar
O'qitishning tashkiliy shakli	N-nazariy ta'lim A-amaliy ta'lim NA- birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar
Dasturga qo'yilgan talab	Majburiy
O'qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asosanib
O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash	Og'zaki, individual va amaliy topshiriqlar bajarish

2. O'quv dasturi mazmuni

t/r	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jo'quv yuklarna	O' qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta' lim
1-bo'lim.Kirish					
1	Solfedjiofani, uning maqsad va vazifalari	Solfedjiofanihaqida umumiy tushuncha. Fanning maqsad va vazifalari. Solfedjiofanining ish shakli, yarim ton, butun ton, tabiiy soz.	1	A	
2-bo'lim.Tonalliklar					

2.	Major ladi tonalliklari	Turli major tonalliklarining turg'un tovushlari, noturg'un tovushlarini kuylash. Akkordlar.	1	N	1
3.	Ritm va metr	Tovushcho'zimlarining juft bo'linishi - engkatta uzunlikdagi tovushcho'ziminivauning bo'laklarini teng qismga bo'linish tartibi. Kuchsiz hissa - zarbtushmaydigan hissa. Metr - kuchli va kuchsiz hissalarining bir tekis data krorlanib turishi. Oddiy o'lchovlar, Oddiy o'lchovlar - bitta zarbga ega bo'lgan kiva uch hissali o'lchovlar. Ikki hissali o'lchovlar - zarblari har bir hissadan keyin takrorlanib turuvchi o'lchov. Allabreve - har bir hissasi yarim tahkot cho'zimiga teng ikki hissali o'lchov. Uch hissali o'lchovlar - zarblari har ikki hissadan keyin takrorlanib turuvchi o'lchovlarni o'rganish	1	A	1
4.	Pog'onalar nomlari	Tonika - ladning asosiy tayanch tovush vazifasini bajaruvchi I-pog'onasi. Dominanta - ladning tonikasidan sof 5 yuqorida joylashgan asosiy pog'ona. Subdominanta - ladning tonikasidan sof 5 pastda joylashgan asosiy pog'ona. Medianta - ladning T bilan D o'rtasidagi tovush. Submedianta - ladning T bilan S o'rtasidagi tovush. Yetakchi tovushlar - ladning VII va II pog'onalari. Sekvensiya - kuy harakatini gammaning turli pog'onalarida bir xilda qytarilib yoki pastlashib takrorlanishini o'rganish.	1	A	1
5	Tetraxordlar	Tetraxord - kvarta intervali doirasida, sekundalar bo'yicha joylashgan, 4 tovushdan iborat melodik yo'nalish. Pastki tetraxord - gammaning I, II, III, IV pog'onalari harakatidan hosil bo'lgan melodik yo'nalish. Yuqorigi tetraxord - gammaning V, VI, VII, (I) pog'onalari harakatidan hosil bo'lgan melodik yo'nalish. Tabiiy major gammasining pastki va yuqorigi tetraxordlari major tetraxordidan iborat. Tetraxordlarning turlari: major tetraxordi 1ton -1ton - 0,5 ton tizimidagi to'rtta pog'ona, minor tetraxordi 1ton - 0,5ton -1ton tizimidagi to'rtta pog'ona, frigiya tetraxordi 0,5 ton - 1ton - 1ton tizimidagi to'rtta pog'ona, garmonik tetraxordlarni o'rganish	1	A	1
6	Fa major tonaligi	Fa major tonaligi Tonikasi fa bo'lgan major tonaligi F-dur (ef-dur) kalit oldida bitta bemol (si-bemol) bor. Fa major uchtovushliklari, Fa major uchtovushlik aylanmalarini o'rganish Mavzuni o'zlashtirish natijasida o'quvchi: -Fa major tonaligi -Fa major uchtovushliklari, -Fa major uchtovushlik aylanmalarini bilishi - Fa-major tonalligida yozilgan mashqlarni kuylash bilim vako'nikmalariga ega bo'lishi	1	A	1

7	Takt oldi	Musiqqa asarining bir kuchli hissadan ikkinchi bir kuchli hissagacha bo'lgan oralig'i takt deyiladi. Nota yozuvida har bir takt nota yo'lini ko'ndalang kesib o'tgan vertikal chiziq bilan ajratiladi, bu vertikal chiziq takt chizig'i deyiladi. Takt chizig'i odatda takt oldidan kuchli hissani ajratib ko'rsatish uchun qo'yiladi. Agar musiqqa asari kuchsiz hissadan boshlansa, asar boshidan to'liq bo'lmagan takt hosil bo'ladi, bunga takt oldi deyiladi. Takt oldi ko'p hollarda umumiy takt cho'ziminin yarמידan oshmaydi. Takt oldi musiqqa asarining o'rtasida, uning istalgan bir qismi boshlanishi oldida ham uchrashi mumkinligini o'rganish.	1	A	1
8	Pauzalar	Pauza - musiqada tovush eshitalishini vaqtincha to'xtalishi. Pauza cho'zimlarining nomlari - butun, yarim, chorak, nimchorak, o'n oltitalik va h.k. Pauza - yunoncha «pausis» so'zidan olingan bo'lib, «tugallash», «to'xtash» ma'nosini beradi. Pauza - tovush eshitalishining bir yoki bir necha ovozlarda vaqtincha to'xtalishidir. Pauzalar musiqaviy tuzilmalarni bir-biridan ajratish, ifoda kuchini yanada oshirish uchun xizmat qiladi va musiqaning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Pauzalar nota yozuvida alohida belgilar bilan ko'rsatiladi. Ularning cho'zimlari asosiy tovush cho'zimlariga muvofiqdir. Pauzalar - tovush cho'zimlari kabi nuqta yoki fermatalar yordamida orttirilishi mumkin, ammo ular ligalar bilan boglanmasligini, butun pauza, yarimtalik, choraktalik pauza, nimchoraktalik pauza, o'n oltitalik pauzalarni o'rganish.	1	A	1
9	Sinkopa	Sinkopa - ritm va metr zarblarining bir-biriga to'g'ri kelmay qolishi. Sinkopalar turlari. Takt ichidagi sinkopalar - bir taktning o'zida kuchsiz va kuchli hissalarining bir-biriga qo'shilib kelishi. Taktaro sinkopalar - taktning oxirgi kuchsiz hissasini navbatdagi taktning kuchli hissasiga qo'shilib kelishi. Pauzali sinkopalar - kuchli yoki nisbiy kuchli hissadagi tovush o'rniga pauzaning paydo bo'lishi natijasida hosil bo'lishini o'rganish	2	A	1
10	Sol major tonalligi	Tonikasi sol bilan boshlangan major tonalligi; G-dur (ge-dur) ham deb atalishi, kalitoldi belgisi bitta fadiezdan iboratligi. Sol major akkordi sol notasidan tuzilgan major uchtovushlilik (sol-si-re) dan iboratligi. Sol major. Sol major uchtovushliklari. Sol major uchtovushlik aylanmalarini ijro etishni o'rganish.	2	A	1
11	Murakab o'lchovlar	Bir xildagi oddiy metrlarning qo'shilishi natijasida murakkab metrlar hosil bo'lishini. Murakkab metr ikki va undan xam ko'proq oddiy metrlardan tarkib topishi mumkinligini. Murakkab metrlarni ifodalovchi barcha	2	A	1

		o'lchovlar xam murakkab o'lchovlar deyilishi. Murakkab metrlarni ifodalovchi eng ko'p qo'llaniladigan o'lchovlar quyidagi murakkab o'lchovlar ekanligi: To'rt xissali o'lchovlar: 4/4, 4/3va kam uchraydigani 4/8. Olti xissali o'lchovlar :6/4, 6/8 va kamuchraydigani 6/16. To'qqiz xissali o'lchovlar:9/8 va kam uchraydigani 9/4, 9/16 O'n ikkili o'lchovlar:12/8 va kam uchraydigani 12/16.Murakkab o'lchovlarda turkumlash shundan iboratki, ularni tashkil etgan oddiy o'lchovlar umumiy ritmik turkumlarga birlashtirilmay, ayrim-ayrim mustaqil turkumlarga birlashtirilishini. Tovush biror murakkab takti butunligicha egallasa ,Bazan esa, cho'zimli oddiy taktlarga teng keladigan, liga bilan birlashtirilgan notalar yordamida xam yozilishi. Bu oxirgi usul murakkab o'lchovlarni turkumlash qoidasiga to'g'ri kelishini o'rganish.			
12	O'n oltitalik nota	Butun notaning o'n oltidan bir bo'lagi, ya'ni butunga nisbatan o'n olti marta qisqa nota; nimchorak shaklida yozilib, faqat yon chizig'i juft bo'lishi. Bir nimchorakda ikki o'n oltitalik, bir chorakda esa to'rtta o'n oltitalik nota borligi. Bir chorakka teng bo'lgan to'rtta o'n oltitalik "bir" sanog'ida urilishi. Chorak va nimchorak, o'n oltitalik nota chizig'ini pastga yoki yuqoriga qarata chizish mumkinligini o'rganish.	1	A	1
13	Repriza	Repriza – qaytarish belgisi, asarning ma'lum bir qismini yoki uni boshdan oxirigacha qaytarish uchun qo'yiladi. Volta – Musiqa asarini takrorlashda tashlab ketiladigan qismi. Agar qaytariladigan qismning yoki butun asarning tugallanish qismi o'zgaradigan bo'lsa, o'zgaruvchi taktlar ustiga kvadrat qavs qo'yiladi. Qavsdan keyin qaytariladigan taktlar yoziladi va ular ustiga ham kvadrat qavs qo'yiladi. Qavs ustiga 1 va 2 raqamlari yoziladi. Raqamlar - birinchi vol'ta, ya'ni birinchi marta va ikkinchi marta qaytarilishini bildiradi: v) agar asar uch qismli shaklda yoziladigan bo'lsa, u vaqtda uchinchi qism qayta yozilmaydi va ikkinchi qismdan keyin: da capo al fine – ya'ni «boshdan oxiri so'zigacha» deb, birinchi qism oxirida esa – fine (oxiri) so'zi yoziladi. Birinchi qism eng boshidan qaytarilmasa, qaytarish boshlanadigan takt ustiga segno belgisi qo'yiladi, ikkinchi qism oxirida esa, Dal segno al fine – ya'ni «segno belgisidan to oxirigacha» - deb yoziladi. Har bir asarning qaytariladigan qismidan oldin keladigan qismiga o'tilganda, Da capo al Segno poi coda - ya'ni «boshidan segno belgisiga, so'ngra koda belgisiga o'tilsin» - deb yozilishini organish.	1	A	1
14	Olti xissali o'lchov	Olti xissali o'lchovlar :6/4, 6/8 va kamuchraydigani 6/16 olchovlarni. Olti hissali olchovlarga dirijorlik	1	A	1

		<p>harakatlarini bajarib kuylashni. Olti hissali o'lchovda yozilgan mashqlarni va asarlarni kuylashni o'rganish. Mavzuni o'zlashtirish natijasida o'quvchi:</p> <p>Olti hissali o'lchovlarni bilishi</p> <p>-Olti hissali olchovlarga dirijorlik harakatlarini bajarib kuylash ;</p> <p>-Olti hissali o'lchovda yozilgan mashqlarni va asarlarni kuylash bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</p>			
15	Re major tonalligi. Si bemol major tonaligi	<p>Re major tonalligi.Tonikasi re bilan boshlangan major tonalligi; D-dur (de-dur) deb ham atalishi. Kalitoldi belgilari ikkita diez (fa-diez va do-diez) dan iboratligi. Asosiy akkordi re notasidan tuzilgan major uchtovushlikdan iborat bo'lib, bular: re, fa-diez va lya tovushlaridan tuzilishi. Si bemol major tonalligi.Tonikasi si-bemol bilan boshlangan major tonalligi; bu B-dur (be-dur) deb ham ataladi, kalitoldi belgilari ikkita bemol (si-bemol va mi-bemol) dan iboratligi.Akkordi si-bemol notasi tuzilgan major uchtovushlilikdan iborat bo'lib, bular si-bemol re va fa sozlaridan tuzilganligini. Re major va si bemol major tonalligi asosiy uchtovushliklari va ularning aylanmalarini o'rganish.</p>	2	A	1
16	Minor ladi tonalliklari. Mi minor tonalligi	<p>Minor ladi - lurg'un tovushlari minor uchtovushligini hosil qilgan yetti pog'onali lad. Tabiiy minor ladi - pog'onalari ton, yarim ton, ton, ton, yarim ton, ton, ton tartibida joylashgan lad. Garmonik minor - VII pog'onasi 0,5 ton ko'tarilgan tabiiy minor. Garmonik minor gammasining pastki tetraxordi minor, yuqorigisi esa garmonik tetraxordidan iboratligi. Melodik minor - yuqorilama harakatda VI va VII pog'onalari ko'tarilgan va pastlama harakatda o'z holicha qaytgan tabiiy minor. Melodik minor gammasining pastki tetraxordi minor, yuqorigisi esa major tetraxordidan iboratligi.Tonikasi mi bo'lgan minor tonalligi bo'lib e-moll deb xam atalishi .Kalitoldida bitta diez (fa diez) bor. Mi minorning yettinchi pog'onasi ko'tarilsa garmonik ,VI-VII-pog'onalari ko'tarilsa melodik minor bo'ladi. Mi minor akkordi mi notasidan tuzilgan minor (kichik) uchtovushligidan iborat bo'lib ,bular mi,so'l va si tovushlaridan tuzilishini o'rganish.</p>	2	A	1
17	Re minor tonalligi. Si minor tonalligi	<p>Tonikasi re bo'lgan minor tonalligi d-moll ham deb atalishi.Kalitoldi belgilari bitta bemoll(mi bemol)dan iborat. Re minorning VII pog'onalari yarim tondan ko'tarilsa –garmonik,VI va VII pog'onalari yarim tonga ko'tarilsa melodik minor xosil bo'lishi. Asosiy akkordi –re notasidan tuzilgan minor uchtovushligidan iborat bo'lib,bular re,fa va lya tovushlaridir . Tonikasi mi bo'lgan minor tonalligi h-moll (hash moll); kalitoldi belgilari 2 diez (fa # va do#)dan iborat. Si minorning VII pog'onasi ko'tarilsa –garmonik ,VI va VII</p>	2	A	1

		pog'onalari ko'tarilsa –melodik minor bo'ladi. Si minorning asomiy akkordi mi notamidan tuzilgan minor uchtovushligidan iborat bo'lib ,si,re va fa diez tovushlaridan tuzilganligini o'rganish.			
18	Sol minor tonalligi. Triollar	Tonikasi sol bo'lgan minor tonalligi g moll ham deb atalishi, kalitoldi belgilari ikki bemol (si bemol va mi bemol)dan iboratligi. VII pog'onasi ko'tarilsa –garmonik,VI-VII pog'onalari ko'tarilsa melodik minor bo'lishi. Sol minorning asosiy akkordi sol notasidan tuzilgan minor uchtovushligi (sol, si bemol va re)dan iboratligi. Uchtovushliklari va aylanmalari.Triol-(lotincha tres –so'zidan)-uch notadan tuzilgan maxsus ritmik shakil bo'lib ,buning uzunlik miqdori shu turdagi ,odatda ikki nuqtaga tengligi .Triol kurmivda yozilgan 3 raqami bilan ko'rsatilishi.Ba'zan shu raqami ust yoki ostidan kvadrat qavs qo'yilishini. Sekvensiyalarini kuylashni o'rganish	2	A	1
19	Aralash metr va o'lchovlar	-Murakkab metrlarni hosil bo'lishini ; -Aralash metr va o'lchovlarni ; -Turkumlanishini bilishi -Aralash metr va o'lchovlar ishtirok etgan mashqlarni kuylash - Ritmik mashqlarni bajarish	1	A	1
20	O'zgaruvchan o'lchovlar	O'zgaruvchan o'lchovlarni ; -O'zgaruvchan o'lchovlarning qo'llanilishini ; -O'zgaruvchan o'lchovlarning almashinishini ; -Polimetriyani bilishi -O'zgarivchan o'lchovlar ishtirok etgan mashqlarni kuylash	1	A	1
3-bo`lim.Intervallar.					
21.	Oddiy intervallar	Intervalni ; -Melodik va garmonik intervallarni ; -Intervallar asosini ; -Intervallar cho'qqisini ; -Oddiy intervallarni va ularning nomlanishini bilishi -Oddiy, melodik, garmonik intervallar asosida mashqlarni kuylash -Turli tonalliklardan oddiy intervallar tuzib kuylash	1	A	1
22	Minor tonalligida intervallar	Lya major tonalligining oddiy intervallarini ; -Garmonik va melodik intervallarini bilishi -Oddiy, melodik, garmonik intervallar asosida mashqlarni kuylash -Garmonik va melodik intervallarni kuylash	2	A	1
23	Diatonik intervallar	Sof prima = 0 tonga - kichik sekunda=0/5 tonga - katta sekunda = 1tonga - kichik tersiya =1/5 tonga - katta tersiya =2.tonga - sof kvarta= 2/5 tonga - orttirilgan kvarta =3 tonga	2	A	1

		<ul style="list-style-type: none"> - kamaytirilgan kvinta= 3 tonga - sof kvinta =3/5 tonga - kichik seksta =4 tonga - katta seksta= 4/5 tonga - kichik septima= 5 tonga - katta septima =5/5 tonga - sof oktava = 6 tonga tengligini bilishi; - diatonik intervallar asosida mashqlarni kuylash 			
24	Orttirilgan va kamaytirilgan (xromatik) intervallar	<p>Orttirilgan intervallarni ;</p> <ul style="list-style-type: none"> - kamaytirilgan intervallarni; - xromatik intervallarni bilishi - orttirilgan, kamaytirilgan, xromatik intervallar asosida mashqlarni kuylash 	2	A	1
25	Tonalliklarda orttirilgan kvarta. Tonalliklarda kamaytirilgan kvinta	<p>Tonalliklardan orttirilgan kvarta intervallarini tuzishni ;</p> <ul style="list-style-type: none"> -tonalliklardan kamaytirilgan kvinta intervallarini tuzishnibilishi - orttirilgan kvarta , kamaytirilgan kvinta intervallari asosida mashqlarni kuylash 	2	A	1
4-bo`lim.Uchtovushlik.					
26	Uchtovushliklarvaularni ngaylanmalari	<ul style="list-style-type: none"> -uchtovushliklarni ; -uchtovushlikaylanmalarini ; -nomlanishinibilishi -majorvaminortonalliklardaturg'un, noturg'untovushlarnikuylash ; - turli tonalliklardan uchtovushlik va aylanmalarini tuzishni 	2	A	1
27	Major va minor tonalliklarini T-S-D aylanmalari	<p>Major va minor tonalliklaridan TSD uchtovushliklarni tuzishni;</p> <ul style="list-style-type: none"> - uchtovushlik aylanmalarini ; - nomlanishini bilishi - major va minor tonalliklarda turg'un, noturg'un tovushlarni kuylash ; - turli tonalliklardan uchtovushlik va aylanmalarini tuzishni 	2	A	1
28	Ikki ovozlik mashqlar	<ul style="list-style-type: none"> - ikki ovozlilikni; - sof unisonni ; - kuyni harakatlanishinibilishi - qo'shiqni kuylashda asar tonalligini, tonikasini, uch tovushligini his etish ; - ikki ovozli mashqlarni kuylashni 	2	A	1
5- Bo`lim.Major va minor tonalliklari					
29	Lya major tonalligi Mi bemol major tonalligi	<p>Lya major tonalligining tuzilishini ;</p> <ul style="list-style-type: none"> -Mi bemol major tonalligini tuzilishini ; - tonalliklarning uchtovushliklarini va ularning aylanmalarini bilishi - lya major va mibemol major tonalligidagi mashqlarni kuylash ; -uhtovushlik va aylanmalarini tuzib kuylash 	1	A	1

30	Mi major tonalligi. Lya bemol major tonalligi	<ul style="list-style-type: none"> - mi major tonalligining tuzilishini ; - lya bemol major tonalligini tuzilishini ; -tonalliklarning uchtovushliklarini va ularning aylanmalarini bilishi - mi major va Lya bemol major tonalligidagi mashqlarni kuylash ; - uchtovushlik va aylanmalarini tuzib kuylash 	2	A	1
31	Fa-diez minor tonalligi. Do minor tonalligi	<ul style="list-style-type: none"> Fa diyez minor tonalligining tuzilishini ; -Do minor tonalligini tuzilishini ; -Garvonik va melodik tuzilishlarini ; -Tonalliklarning uchtovushliklarini va ularning aylanmalarini bilishi -Fa diyez minor va Do minor tonalligidagi mashqlarni kuylash ; -Uchtovushlik va aylanmalarini tuzib kuylash 	2	A	1
32	Do diez minor tonalligi Fa minor tonalligi	<ul style="list-style-type: none"> -Do diyez minor tonalligining tuzilishini ; -Fa minor tonalligini tuzilishini ; - garvonik va melodik tuzilishlarini ; - tonalliklarning uchtovushliklarini va ularning aylanmalarini bilishi -Do diyez minor va fa minor tonalligidagi mashqlarni kuylash ; - sekvensiyalarni yuqoriga va pastga tomon kuylab davom ettirish ; - uchtovushlik va aylanmalarini tuzish 	2	A	1
33	Major va minor tonalliklarda intervallar Major va minor diatonik intervalari	<ul style="list-style-type: none"> - major va minor tonalliklardagi oddiy internallarni ; - major va minor diatonik intervallarini bilishi -Turli majot va minor tonalliklarida oddiy intervallarni kuylash - tovushlardan turli intervallarini tuzish va kuylash ; - intervallarini aniqlash va kuylash ; - mashqlarni notalarini kuylab aytib berishni 	2	A	1
34	Major va minor tonalliklarda orttirilgan kvarta	<ul style="list-style-type: none"> - major va minor tonalliklarining barcha pog'onalaridan sof kvarta va orttirilgan kvarta internallarni tuzishni bilishi - major va minor tonalliklarining barcha pog'onalaridan sof kvarta va orttirilgan kvarta internallarni kuylash kabi bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak 	2	A	1
35	Major va minor tonalliklarda orttirilgan kvarta, tonalliklarda kamaytirilgan kvinta	<ul style="list-style-type: none"> - major va minor tonalliklarida orttirilgan kvartalarni ; - major va minor tonalliklarida kamaytirilgan kvintalarini bilishi - major va minor tonalliklarining barcha pog'onalaridan sof kvinta va kamaytirilgan kvinta internallarni tuzish va kuylash kabi bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak 	2	A	1
36	Orttirilgan va kamaytirilgan (xromatik) intervallar	<ul style="list-style-type: none"> - orttirilgan va kamaytirilgan (xromatik) intervallarni bilishi 	2	A	1

		- turli tovushlardan yuqoriga qarab orttirilgan va kamaytirilgan, xromatik intervallarlar tuzish va kuylash ; - ko'rsatilgan intervallarni aniqlash va kuylash kabi bilishi kerak			
37	Major va minor tonalliklarda turg'un, noturg'un tovushlar	- major tonalliklarining turg'un va noturg'un tovushlarini ; -minor tonalliklarining turg'un va noturg'un tovushlarini bilishi - major va minor tonalliklarda turg'un, noturg'un tovushlarni aniqlash ; - major va minor tonalliklarda turg'un, noturg'un tovushlarni kuylash	2	A	1
38	Major va minor tonalliklarini T-S-D aylanmalari	- major tonalliklarining T-S-D uchtovushliklari va uning aylanmalarini ; - minor tonalliklarining T-S-D uchtovushliklari va uning aylanmalarini bilishi - major va minor T-S-D uchtovusliklari va aylanmalarini tuzish	2	A	1
1-bo'lim. Musiqatovushi. Musiqatuzilishi. Temperastiya. Notayozuvi.					
39	Musiqiy tovush. Tovushqator. Musiqiy tovush xususiyatalari. Pog'onalar. Tovushlar engarmonizmi..	Musiqqa nazariyasi fanining maqsad va vazifalari. Musiqiy tovush. Musiqiy tovush hususiyatlari. Pog'onalar. Tovushlar engarmonizmi.	2	N, A	2
40	Tovushlar xarfiy sistema. Oktavalar.	Tovushqator. Tovushlar xarfiy sistemasi haqida tushuncha. Tovushlarning harfiy sistemada joylashuvi va nomlanishi. Oktavalar haqida tushuncha. Oktavalrning nomlanishi.	2	N, A	2
41	Diapozon.Registr.Temp erastiyalangan soz.	Musiqiy sozning oktavalarga bo'linishi, ton va yarim tonlarning hosil bo'lishi va ahamiyati	2	N, A	2
42	Nota yozuvi. Nota yo'li. Kalitlar. Ton va yarim ton. Tovushqatorda xosila pog'onalar.	Nota tiziminining kelib chiqish tarixi. Nota yo'li. Nota cho'zimplari. Musiqiy kalit va uning turlari, Ton va yarim ton. Hosila pog'onalar.	2	N, A	2
43	Nota cho'zimplari. Pauzalar. Alterastiya belgilari. Nota cho'zimni uzaytirish va qisqartirish belgilari	Nota cho'zimplari haqida tushuncha. Pauza va uning turlari. Al'terastiya belgilari va ularning yozilishi. Notalar cho'zimni uzaytiruvchi. Nota cho'zimni qisqartiruvchi belgilar.	2	N, A	2
2-bo'lim. Metr. Ritm. Temp.					
44	Akstent. Metr.O'lchov. Takt.Takt chizigi	Akstent. Metr.O'lchov. Takt.Takt chizigi.	2	N, A	2
45	Oddiy, ikki va uch xissali o'lchovlar (2/2. 2/4. 2 S. 3/2, Ul, 3/8. 3/16)	Oddiy o'lchovlariga dirijorlik qilishni; Oddiy, ikki va uch xissali o'lchovlar (2/2.2/4. 2 S. 3/2, Ul, 3/8. 3/16)	2	A	2
46	Murakkab 4/4,4/8, 4/2, 6/4, 6/8,6/16, 9/8,12/8) va murakkab aralash	Murakkab 4/4,4/8, 4/2, 6/4, 6/8,6/16, 9/8,12/8) va murakkab aralash (5/8.5/4, 7/8, 7/4) o'lchovlar.	2	N,A	2

	(5/8.5/4, 7/8, 7/4) o'lchamlar.				
47	Ritm. Ritm turlari: bir tekis, punktir, triol.	Ritm. Ritmni aniqlash. Ritmning turlari: bir tekis, punktir, triol	2	N,A	2
48	Sinkopa. O'zgaruvchan o'lchovlar.	Sinkopa. Cholg'u va xonandalik musiqasida oddiy, murakkab va aralash o'lchovdagi cho'zimlarni turkumlanishi. O'zgaruvchan o'lchovlar	2	N,A	2
49	Temp. Musiqada ritm metr va temp ahamiyati.	Temp. Temp o'zgarishlari. Musiqada ritm metr va temp ahamiyati	2	N,A	2
50	Dirijorlik. Dirijorlik harakatlari.	Dirijorlik. Dirijorlik harakatlari, sxemasi.	1	N,A	2
3- bo'lim. Lad va tonalliklar					
51	Lad . Turgun va noturgun tovushlar	Lad. turg'un va noturg'un tovushlarning o'zaro munosabat sistemasi. Tonika-t. Ladda tonikani aniqlash. Noturg'un tovushning turg'un tovushga aylanishi	2	N,A	2
52	Major lading tuzilishi	Major ladi. Uchtovushlik. Tabiiy major pog'onalarining nomlanishi. Turg'un pog'onalar – I, III va V pog'onalar . noturg'un pog'onalar - II, IV, VI, VII pog'onalar.	2	N,A	2
53	Tonalliklar. Major tonalliklarini kvarta-kvinta davrasi	Tonalliklar. Major tonalliklarini kvarta-kvinta davrasi.	2	N,A	2
54	Minor ladi. Minor lading pog'onalari. Minor ladini tonalliklarini kvarta-kvinta davrasi	Minor ladi. Minor tovushqatorining tuzilishi. Minor tonalliklarini kvarta-kvinta davrasi. Pog'onalarning raqamlar bilan belgilanishi nomlanishi. diyezli va bemolli minor tonalliklari. Kvinta davrasi	2	N,A	2
55	Parallel, nomdosh va engarmonik teng tonalliklar	Parallel, nomdosh va engarmonik teng tonalliklar. Engarmonikka teng tonalliklarni aniqlab tahlil qilish	2	N,A	2
56	Xalk musiqasi (Ioni, doriy, frigi, lidi, miksolidiy, eoliy) lading	Xalq musiqasi lading: ioniy, doriy, frigi, lidi, miksolidiy, eoliy lading.	2	N,A	2
57	Melodik lading. Juft aylanma garmonik major va minor lading O'zgaruvchan lading. Qisqartirilgan lad. Pentatonika.	Juft aylanma garmonik major va minor lading. O'zgaruvchan lading. Qisqartirilgan lad, pentatonika.	2	N,A	2
4- bo'lim. Akkordlar					
58	Akkordlar. Akkord turlari	Akkordlar. Akkord uchtovushliklarining musiqadagi o'rni va ahamiyati. Akkord turlari.	2	N,A	4
59	Uchtovushliklar. Asosiy uchtovushliklar. Uchtovushlik aylanmalari	Uchtovushliklar. Asosiy uchtovushliklar. Uchtovushlik aylanmalari. Uchtovushliklar aylanmalarini hosil bo'lishi qoidalari bilan tanishish.	2	N,A	4

60	Major va minor uchtovushliklari va aylanmalari	Major va minor pog'onalaridan uchtovushlik tuzish. major va minor uchtovushliklari va aylanmalari. garmonik uchtovushliklari va melodik uchtovushliklarni qo'llanishi, tonika, subdomenanta, domenanta uchtovushliklari tushunchasini berish	2	N,A	4
61	Major va minor ladining yondosh uchtovushliklari	Major va minor ladining yondosh uchtovushliklarini tuzilishi.	2	N,A	4
62	Tabiiy va garmonik major hamda minor pog'onalaridan tuzilgan uchtovushliklar	Tabiiy va garmonik major minor lادلarning ajralib turishi, septakkord.	2	N,A	4
63	Domenantseptakkord D7 va aylanmalarini tuzilishi va yechilishi	Domenantseptakkord d7 va aylanmalarini tuzilishi va yechilishi. Septakkord va aylanmalarini tuzilishi sxemasi, tovushlar yechilish qoidalari.	2	N,A	4
64	Yetakchi septakkord VII7 va aylanmalarini tuzilishi va yechilishi	Yetakchi septakkord. Yetakchi septakkord tuzilishi va yechilishi.	2	N,A	4
65	II pog'ona septakkordni tuzilishi va yechilishi	II-pog'ona septakkord va aylanmalarini tuzilish sxemasi, II va 7 pog'ona septakkordi aylanmalarini S da to'laroq ifodalaniishi, I 6/5 (basda IV pog'ona) qo'llanishi	2	N,A	4
5-bulim. Xromatizm. Modulyatsiya. Ogishma. Melizmlar.					
66	Xromatizm tushunchasi. Xromatik gammalarning tuzilishi. Ladda alterastiya	Majorda va minorda xromatizm pog'onalarni ko'tarish yoki pasaytirish yo'li. Xromatik gamma xosil qilish. Noturg'un tovushlarning turg'un tovushlarga tortilishi. Keskinlashtiruvchi xromatik o'zgarishlar. Ladda alterastiya.	2	N,A	2
67	Transpozistiya. Modulyatsiya. Og'ishma	Transpozistiya orqali kuyning bir tonallikdan boshqa bir tonallikga ko'chirish. Transpozistiyasullari. Modulyatsiya tushunchasi. Modulatsiyaning musiqada qo'llanishi. Tonalliklar harakati. Og'ishma haqida tushuncha berish,	4	N,A	2
68	Pog'onadosh tonalliklarga modulyatsiya qilish	Pog'onadosh tonalliklarga modulyatsiya qilish.	4	N,A	2
69	Kuy. Kuy harakat turlari. Sekvensiya	Kuy, kuy harakati turlari, sekvensiya,	4	N,A	2
70	Kuyning tarkiblarga bo'linishi. Melizmlar. Musiqa bezaklari.	Kuyning tarkiblarga bo'linishi. Tuzilma. Sezura. Davriya. Jumla. Kadensiya. Ibora. Melizmlar. Musiqa bezaklari.	4	N,A	2
	Jami		140		70

3. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash

O'quv dasturi davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar ichki nazorat bo'yicha amaldagi tartib asosida baholanadi. Baholash usullari og'zaki, yozma, test,

individual vazifalar, kichik guruhlar tomonidan bajarilgan topshiriqlardan iborat bo'lib, ular o'quv elementini o'zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga hamohang bo'lishi lozim.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. V.A.Vahromeev "Musiqā elementar nazariyasi" 1983 y
2. I.V.Sposobin "Musiqā elementar nazariyasi" 1983y
3. M.Yu.Afonina "Musiqā elementar nazariyasi fanidan mashqlar"2007y
4. V.V.Xvostenko "Musiqā elementar nazariyasi fanidan masalalar to'plami"1984y
5. L.E.Krasinskaya , V.E. Utkin "Musiqā elementar nazariyasi asoslari" 1993y
6. M.Yu.Afonina "Musiqā elementar nazariyasi fanidan mashqlar"2007y
7. V.V.Xvostenko "Musiqā elementar nazariyasi fanidan masalalar to'plami"1984y
8. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. – 172 b.
9. Tolipov O'.,Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiyasoslari- T.:2006-163b.
10. Baxromova T.A. Spravochnik po muzykalnoy gramote i solfedjio. M., 2004.
11. Nurmatov H. "Musiqā" darsliklari. Toshkent 2016
12. Panjiev Q.B., Karimova D. A., Ualieva G.I.,-"Musiqā madaniyati" fani o'qituvchilari uchun O'UM - Toshkent -2017
13. Orifjon Azizov "Solfedjio" darslik Toshkent 2014 yil.223-230 bet
14. Orifjon Azizov "Solfedjio" o'quv qo'llanma Toshkent- 2007 yil.68 bet.
15. Qadamboy Rahimov "Musiqaning elementar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar to'plami" Toshkent "O'zbekiston" – 2006 yil 238- bet
16. Gavhar Ibraximjanova "Musiqaning elementar nazariyasi. Garmoniya" Toshkent 2012 yil. 97-98- bet
17. Internet saytlari
18. "O'zbekiston-Vatanimmanim" to'plam. 1, 2, 3, 4 qismlar. Toshkent. Mehnat, 1997yil.
19. G.Mansurova. "Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubi". Toshkent. "Yangi nashr". 2008 yil.
20. F.Mansurbekova. "Xor solfedjio". Toshkent. 2010 yil.
21. G.Sharipova, Sh.Yaqubova."Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqā o'qitish metodikasi". Toshkent- "Cho'lpon" nomidagi nashtiyot-matbaa ijodiy uyi. 2009 yil.
22. G.Sharipova. "Musiqā va uni o'qitish metodikasi". Toshkent. "Turon-Iqbol". 2006 yil.
23. N.B.Qahharov. "Vokal asoslari". Toshkent. "IQTISOD-MOLIYA". 2008 yil.
24. D.Karimova,Sh.Yaqubova. "Bolalar musiqā asarlari ustida ishlash". Toshkent-Fan va exnologiya. 2012 yil.
25. U.Xasanboeva. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent-"ILM ZIYO". 2006yil.
26. D.A.Karimova. "Musiqā metodikasida innovatsion texnologiyalarini qo'llash". T., 2009
27. N.Yusupova. "Musiqā savodi, metodikasi va ritmika". Toshkent "Musiqā" nashriyoti, 2017 yil.
- 28.

Internet manbaalari

1. www.multimedia.uz Xalq ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi
2. www.ziyonet.uz Ijtimoiy axborot ta'lim portali
3. music-dic.ru -Bolalar uchun qo'shiqlar
4. <http://www.zvuki.uz/>
5. <https://t.me/joinchat/> - Uchitel muzıki
6. www.google.com
7. www.markaz.uz
8. www.mtt.uz

9. www.musiqqa.uz

10. www.nazariya.uz

11. www.musiqqata`limi.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR, PROFESSIONAL TA'LIM
BOSHQARUV HAMDA PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

O'RTA PROFESSIONAL TA'LIMNING

40211404- Maktabgacha ta'lim tashkiloti xoreografiyasi kasbi bo'yicha

Raqsnı sahnalashtirish fanidan

O'QUV DASTURI

Kvalifikatsiya(lar) nomi:

1. Havaskorlik raqs to'garagi rahbari
2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti raqs o'qituvchisi

O'quv rejadagi tartib raqami: 1.08

Ajratilgan soat: 240

Toshkent – 2022

O'quv dasturipedagogik innovatsiyalar, professional ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayorlash va ularning malakasini oshirish instituti pedagogika 110 000 sohasi yo'nalishlari bo'yicha o'quv metodik birlashmasining 2022 yil "29" avgustdagi 6-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022-yil 29-oktabrdagi 6-sonli yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug'i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.**

Tuzuvchilar:	I. Azimov	Respublika musiqa va san'at kolleji direktori
	Q. Qambarova	Respublika musiqa va san'at kolleji o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
	N. Bozorboyeva	Respublika musiqa va san'at kolleji o'qituvchisi
	A. Xudyarov	Respublika musiqa va san'at kolleji o'qituvchisi
Taqrizchilar:	E. Saitova	O'zbekiston Davlat Xoreografiya Akademiyasi o'qituvchisi

1. O'quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	Raqsnı sahnalashtirish
Ajratilgan soat	240
Mavzular soni	25
Dasturning maqsadi	Maktabgacha ta'lim tashkiloti xoreografiyasi faqatgina to'garak rahbari bo'libgina qolmay, balki u pedagog, tarbiyachi va tashkilotchidir. Raqs sahnalashtirish fani boshqa mutaxassis fanlarni ham o'z ichiga oladi. Bulardan: jahon xalq raqslari, mumtoz raqs, o'zbek raqsi, folklor raqslaridir. Bu fan ikki yo'nalishda ochib beriladi: nazariy va amaliy, qaysiki ular bir-biri bilan bog'liqdirlar. Olingan nazariy bilimlarni raqs sahnalashtirish amaliyotiga tadbiiq etadilar. Fanning maqsadi bo'lajak baletmeystrlarga raqsni sahnalashtirishning barcha sir asrorlarini o'rgatadi.
O'zlashtirish (o'qitish) natijalari	Ushbu fan bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning jahon andozalari va o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, o'quv rejasiga asoslangan holda o'quv mashg'ulotlarining tegishli mavzulari amaliy (kichik guruhlarga bo'lingan holda) hamda yakka tartibda o'qitiladi
Bilimlar	Raqsnı sahnalashtirish fanini o'zlashtirib bo'lgandan so'ng quyidagi bilimlarga ega bo'ladilar: musiqa materialini raqsga tushirish qoidalari; sahnalashtirilgan raqslarning tasvirlari to'plami; raqsnı ijro etish usullari; raqs ijrosida libosning ahamiyati
Ko'nikmalar	Raqsnı sahnalashtirish fanini o'zlashtirib bo'lgandan so'ng quyidagi ko'nikmaga ega bo'ladilar: raqs sahnalashtirishdan avval musiqa materialı ustida ishlash; raqsnı tasvirini chizish; raqs harakatlarini yaratish; raqs uchun libos tanlash;
O'quv rejasiga muvofiq o'zaro bog'liq bo'lgan fanning nomi	Maxsus fanlar
O'qitishni tashkiliy shakli	N – Nazariy ta'lim; A – Amaliy ta'lim; Y- Yakka ta'lim NA – Nazariy va amaliy ta'lim birgalikda tashkil etiladi;
Dasturga qo'yilgan talab	Majburiy
O'qitish tili	Guruhda belgilangan o'qitish tili asosida
Baholash tartibi	Baholash bo'yicha amaldagi tartib asosida
O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash	Yozma, og'zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriq

2. O'quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	o'qw yuklarnasi	O' qitishni tashkil etish shakli	Mustaqil ta' lim
1	Raqs sahnalashtirish fanining asosiy vazifalari	Raqs sahnalashtirish fanining maqsad va vazifalari. Raqs to'garagi rahbarining egallagan rahbarlik va tashkilotchilik ishlari fan o'rganish mobaynida baletmeysterning ijodiy qobiliyatining o'zni. Raqs musiqa va raqs tasvirining o'zni.	6	A	3
2	Sahna tushunchasi	Sahna tushunchasi Sahna haqida ma'lumot, sahna plani, yoritish, chiroqlar, sahna bezagi. Sahna pardalari ahamiyati.	6	A	3
3	Raqs tasvirini aniq ifodalash	Raqs tasviri. Raqs tasviri-raqskompozitsiyasining asosi. Raqs tasvirida ijrochilarning sahnabo'yicha joylashtirish. qadimda raqs madaniyatini rivojlanishida tasvirning o'zni. Raqs tasvirida gibelgilarning ahamiyati. Oddiy va murakkab raqs tasviri.	6	A	3
4	Raqs sahnalashtirishda harakat o'zni	Raqs harakatlari. Harakat va tasvir. Raqs kompozitsiyasining rivojlanishida tasvirning o'zni. Harakatlar yaratish qobiliyatini o'stirish.	6	A	3
5	Baletmeysterlik faoliyatlari	Baletmeysterlik turlarini o'rgatish. Raqs sahnalashtirishda baletmeyster o'zni. Baletmeyster turlarining bir-biridan farqi.	6	A	3
6	Raqs leksikasi haqida	Harakatlar haqida ma'lumot. Harakatlarning musiqa bilan chambarchas bog'liqligi.	6	A	3
7	Xoregrafik tekst	Raqs dramaturgiya qonunlari va ularga bo'ysunish	6	A	3
8	Xoregrafiya turlari	Klassik raqs, jahon xalq raqsi, o'zbek raqsi va estrada bal raqslarining bir-biridan farqlari.	6	A	3
9	Leksikani raqs tasviri bilan bog'liqligi	Raqs tasvirini tushuntirish. Harakatni raqs tasviri bilan bog'lash uslublarini o'rgatish	6	A	3
10	O'zbek raqs maktabi	3ta asosiy maktablarini tushuntirib o'tish, ularning bir-biridan farqi, milliyliigi, libosi va yo'nalishlarini izoh berish	6	A	3
11	Xorazm raqs maktabi	Asosiy qo'l oyoq holatlari. Harakatlar to'plami va shular asosida raqs sahnalashtirish	12	A	6
12	Buxoro raqs maktabi	Asosiy qo'l oyoq holatlari. Harakatlar to'plami va shular asosida raqs sahnalashtirish	12	A	6
13	Raqs jamoasi rahbari vazifasi	Jamoa tuzish, uniyuritish, yoshiga mos guruhlarga ajratish va raqs sahnalashtirish	12	A	6
14	Raqsni yozuv bo'yicha tahlil	Raqs tasvirini yaratish, har bitta taktga mo'ljallagan raqs harakatlarini og'zaki tushuntirib berish	12	A	6

15	Musiqqa va raqs	Raqs sahnalashtirishda musiqqa tanlash, shu musiqqaga asoslanib raqs sahnalashtirish. Har bir taktga moslab raqs sahnalashtirish. Baletmeyster kompozitor bilan hamjihatlikda raqs sahnalashtirishi.	12	A	6
16	Raqs sahnalashtirish	Har bir o`quvchi tanlagan mavzufsida raqs sahnalashtirish. Raqsning milliyligiga, uning etnografik moslashishiga e`tiborqaratish	12	A	6
17	Bolalar xoreografik jamoalari bilan ishlash	Maktablatda raqs to`garaklari tuzish. Bolalar yoshiga qarab ularni guruhlariga ajratish va ularni yoshiga moslab raqs sahnalashtirish	12	A	6
18	Raqsning milliyligi	Milliy musiqalarga mos raqs sahnalashtirish, milliyligimizdan uzoqlashmagan holda harakatlardan foydalanish	12	A	6
19	Folklor raqslarini o`rgatish	Surxondaryo, Qashqadaryo vohasi raqslarini o`rgatish. Folklor raqs haqida ma`lumot berish. Harakatlaridan foydalanib raqs sahnalashtirish	12	A	6
20	Ommaviy raqs sahnalashtirish	Katta tadbirlarga moljallangan ommaviy raqs sahnalashtirish. Murakkab raqs tasviri ustida ishlash.	12	A	6
21	Yakka raqs sahnalashtirish usullari	Yakka raqs mavzu tanlash. Musiqqa ustida ishlash. Har bir ijrochini qobiliyati darajasiga mos raqs harakat berish	12	A	6
22	Diplom oldi mashg`ulotlari	Harbiroquvchidiplom mavzusi ustida ishlaydi. Musiqqa bilan raqs tasviri ustida ishlaydi	12	A	6
23	Raqs sahnalashtirish	Oziga yuklatilgan raqs ustida ishlash	12	A	6
24	Barcha o`tilgan raqs ustida ishlash	Har bir sahnalashtirilgan raqs ustida mukammal ishlash yo`llari	12	A	6
25	Diplom oldi mashg`ulotlari	Berilgan diplom ishi raqs mukammal ozlashtirib olish.	12	A	8
	Jami:		240		120

2. O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash

O`quv dasturi davomida o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilgan bilim va ko`nikmalar ichki nazorat bo`yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, o`zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo`lib, ular o`quv elementini o`zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo`yilgan maqsadga hamohang bo`lishi lozim.

Foydalaniladigan asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar, elektron ta'lim resurslari hamda qo'shimcha adabiyotlar ro'yhati

1. Shavkat Mirziyoyev. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". Toshkent – "O'zbekiston"-2018.
2. Shavkat Mirziyoyev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent – "O'zbekiston"-2016.
3. . «Ферганский танец» - Р.Каримова. 1973 год.
4. . «Хоразмский танец» - Р.Каримова. 1975 год.
5. . «Бухарский танец» - Р.Каримова.1977 год.
6. . «Танцы ансамбля Баҳор» - Р.Каримова. 1979 год.
7. . «Танцы Равви Атаджановой» - Р.Каримова. 1983 год.
8. . «Узбекские танцы в постановке Исахара Акилова» - Р.Каримова. 1987 год.
9. . «Уроки узбекского танца» – Р.Каримова. 1987 год.
10. . «Тановар» - Р.Каримова. 2000 год.

Internet saytlari.

1. www.raqs.uz
2. www.zioynet.uz
3. [www.universalia.nov.ru / instruments.](http://www.universalia.nov.ru/instruments)
4. www.muzik.uz
5. www.classicmuzik.uz
6. [htt'://forum.ziyouz.com](http://forum.ziyouz.com)
7. www.arxiv.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR, PROFESSIONAL TA'LIM
BOSHQARUV HAMDA PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

O'RTA PROFESSIONAL TA'LIMNING

40211404- Maktabgacha ta'lim tashkiloti xoreografiyasi kasbi bo'yicha

Rejissura asoslari va aktyorlik mahorati fanidan

O'QUV DASTURI

Kvalifikatsiya(lar) nomi:

1. Havaskorlik raqs to'garagi rahbari
2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti raqs o'qituvchisi

O'quv rejadagi tartib raqami: 1.09

Ajratilgan soat: 120

Toshkent – 2022

O'quv dasturipedagogik innovatsiyalar, professional ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayorlash va ularning malakasini oshirish instituti pedagogika 110 000 sohasi yo'nalishlari bo'yicha o'quv metodik birlashmasining 2022 yil "29" avgustdagi 6-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022-yil 29-oktabrdagi 6-sonli yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2022-yil 25-noyabrdagi 388-sonli buyrug'i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.**

Tuzuvchilar	F.Umarova	Namangan ixtisoslashtirilgan san'at maktabi aktyorlik san'ati kafedrasini mudiri katta o'qituvchi
Tarizchilar	T.Otajonov	- Namangan ixtisoslashtirilgan san'at maktabi aktyorlik san'ati kafedrasini oily toifali o'qituvchi -

1. O`quv dasturi asosiy talablari

Dastur nomi	Rejissura asoslari va aktyorlik mahorati
Ajratilgan soat	120
Mavzular soni	11
Dasturning maqsadi	Egiluvchanlik va harakatchanlikni, ya'ni gavda (plastikasi) nafisligini rivojlantirish, gavdani to'g'ri tutish, yurish, o'tirishga oid, gavdani tashqi ko'rinishini to'g'ri yo'lga qo'yish, qo'yol-oyoq xatti-harakatlarini ifodaviyligini o'stirish, qo'shimcha so'z bilan xatti-harakatga oid mashqlar muntazam ishlab borish. Xatti-harakatni musiqaga qo'yish va eshitish o'rgatib boriladi. Akrobatika elementlari, xatti-harakatlar orqali ifodalay olish, mizanssenalar yaratish o'quvchi ongiga singdirib boriladi. Shu bilan birga rejissyorlik ishlarini ham o'rganadi. Sahnaviy madaniyat va nazokatni tarbiyalab borish. Rejissura asoslari va aktyorlik mahorati fanining asosiy mazmuni shundan iboratki – o'quvchi – rejissyorlarni gavda (plastika) nafisligini to'g'ri yo'lga qo'yishdir. Fan havaskor raqs jamoasi rahbarini tayyorlashda muhim omildir.
O'zlashtirish (o'qitish) natijalari	O'quvchilar hozirgi davr ruhida tarbiyalanib, ongiga milliy istiqlol, milliy mafkura goyalarini yanada chukurroq singdirib olish ko'nikmasini shakllantiradilar.
Bilimlar	O'quvchilar fanni o'zlashtirib bo'lgandan so'ng quyidagi bilimlarga ega bo'ladilar: - gavda plastikasi; - Qo'l-oyoq xatti-harakati; - Sahnada gavda a'zolarini holati; - Turli xil sahnaviy jang kompozitsiyalari; - Xatti-harakat va musiqaga; - plastikaga oid xatti-harakatlar; - ommaviy bayram va konsert chiqishlarida xatti-harakatning nazokatlilik
Ko'nikmalar	O'quvchilar fanni o'zlashtirib bo'lgandan so'ng quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladilar: - egiluvchanlik, harakatchanlikni rivojlantirib berish; - qo'l-oyoq xatti-harakat ifodaviyligini o'stirish; - xatti-harakatni musiqaga qo'shib olib borish; - turli xil sahnaviy jang kompozitsiyalarini takomillashtirib, tashkil etib borish. rejissyorlik mahorati ham oshib boradi.
O'quv rejasiga muvofiq o'zaro bo'g'liq fanning nomi	Maxsus fanlar
O'qitishning tashkiliy shakli	N-nazariy ta'lim A-amaliy ta'lim NA-birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar
Dasturga qo'yilgan talab	Majburiy
O'qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash	Yozma, savol-javob, munozara, test, amaliy topshiriq

2. O`quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	o'qw yuklarna	O'qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta'lim
